

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

KURS ISHI

MAVZU: TARBIYA TURLARI

BAJARDI: *Kasb ta'limi (Zootexniya) yo'nalishi*
210 guruh talabasi Xujaxmatova N

TEKSHIRDI: *Boboqulov Z*

SAMARQAND – 2016

MUNDARIJA	
KIRISH:	3
I. TARBIYA JARAYONINING MOXIYATI VA VAZIFALARI	5
1.1. Tarbiya tushunchasi	5
II. TARBIYA TURLARI	
2.1. Axloq - odob tarbiyasi.....	7
2.2. Mehnat tarbiyasi.....	11
2.3. Nafosat tarbiyasi.....	15
2.4. Jismoniy tarbiya va iymon-e'tiqod tarbiyasi.....	20
2.5. Ekologik tarbiya.....	24
2.6. Iqtisodiy tarbiya.....	28
Xulosa	31
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	33

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta’lim-tarbiya natijasiga bog‘liqligi barchaga ayon. Ta’lim-tarbiyani takomillashtirmay ma’naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta’lim-tarbiyasini tashkil etishi kundalik hayotning o‘zi talab qilmoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» asarida «Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz». Va yana «Yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan odamlarning etishmasligi bizning olg‘a siljishimizda hamon katta to‘siq bo‘lib turibdi. Bunday kadrlarni, avvalombor, yosh kadrlarni topish, o‘stirish, tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda», deb juda o‘rinli ta’kidlangan.

Avvalombor, tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va halq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga suyanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, huquqshunoslik, psixologiya fanlari ma’lumotiga asoslanadi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta’sir ko‘rsatish emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, uning “asosiy maqsadi- ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayorlash”, zarurligi va “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb, ta’kidlanishi bejiz emas albatta.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy, estetik xislari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Ushbu fikrlar asosida kurs ishining o'ta dolzarbligi, muhimligi ayon bo'ladi, chunki boshlangan ishlarni uzulksiz davom ettirish va oxirgi yetkazish bag'oyat muhim hisoblanadi.

Mavzuning maqsad va vazifalari: Shaxsni axloqiy jihatdan shakllantirishda tarbiya jarayoni hamda tarbiya turlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish maqsadida quyidagi **vazifalarni** yechish masalalari qo'yiladi.

- Tarbiya tushunchasini ochib berish;
- Axloqiy tarbiya;
- Jismoniy tarbiya;
- Estetik tarbiya;
- Iqtisodiy tarbiya;
- Ekologik tarbiya turlarini o'rganish va tanqidiy tahlil qilish.

Ishning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», pedagogika bo'yicha nazariyalar va konsepsiyalar, respublikamiz olimlarining qarashlari va ilgari surilgan g'oyalardan iborat.

Kurs ishining tuzilishi va hajmi. Kurs ishi bir bob, yetti band, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA VAZIFALARI

1.1. Tarbiya tushunchasi

Tarbiya-shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirish jarayonidir. Tarbiya tushunchasi ikki ma'noda ishlatiladi: tor va keng.

Keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi o'z ichiga bolaga ta'sir qiladigan hamma narsani, bola shakllanishini, uni hayotga ijtimoiy, madaniy, ishlab chiqarish tayyorlash barcha qirralarini o'z ichiga oladi. Buni nafaqat maktab oila va maktabdan tashqari tarbiya muassasalari ishlari, balki jamiyatning hayot tarzi undagi g'oyalar, adabiyot va san'at, tashviqot vositalari radio, televideniye, gazeta va jurnallar ta'lim va ma'lumot ham kiradi.

Tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi-bu yoshlarda dunyoqarashni shakllantirish, xulq-atvorni shakllantirish, ularning estetik dinini rivojlantirish va jismoniy kamolotga yetishtirishdir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va xozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan xolda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Biror bir maksadga karatilgan tarbiya jarayonining moxiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

A) Talabaning qaysi hislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlashni rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya moxiyatini ta'lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil kiladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nixoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mexnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushoxada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushoxada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa

moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflilik mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiytdagi muxit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga karab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taklid qiladilar. So'ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bogliq.

Metod – yunoncha atama bo'lib – aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish harakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy, namuna usuli.
4. Ragbatlantirish va jazo usuli.

Yuqoridagi metodlar (usullar) o'z navbatida quyidagi guruhchalarga bo'linadi:

Birinchi gurux - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, xikoya, ma'ruza, suxbat va boshqa usullarga;

Ikkinchi gurux - kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullariga;

Uchinchi gurux - tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish. o'rnatish, boshqalarni amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish;

To'rtinchi gurux - o'quvchi-talabalarning yaxshi bajargan ishlarini, o'rtaklari oldida yoki ota-onalar majlisida ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy yordam, stipendiyalarini oshirish, maqtov yorliqlari topshirish. Suratlarini xurmat

taxtachasiga yopishtirish va boshqa ogzaki, "raxmat", "barakalla" kabi ragbatlantirish usullarini kiritish mumkin.

Tarbiyachining rag'batlantirish usuli ikkiga bo'linadi:

1. Siz buyurgan ishga burch va mas'uliyat bilan yondashganligini ragbatlantirish.

2. Siz buyurgan ishga qiziqishini va uni uddalay olganligini ragbatlantirish.

Jazo – bu bolaning noto'gri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

Agar bola siz ogoxlantirmasingizdan yoki tushuntirmasingizdan oldin o'z xatosini tushungan bo'lsa-yu, sizga qilgan xatosini aytolmay izza chekib turgan bo'lsa, uni jazolashga zarurat yo'q. Endi bu xatoni kaytarmayman, degan ma'noda sizga karayapti. Siz unga yana bir marta imkoniyat bering. Ammo keyingi gal ham xato qilsa va uni tan olmasa, unday xollarda quyidagi jazo turlari qo'llaniladi.

1. Tushuntirish.

2. Tanbex berish.

3. Ogoxlantirish.

4. Qattiq ogoxlantirish.

5. Uyaltirish.

II. TARBIYA TURLARI

2.1. Axloq - odob tarbiyasi

Mustaqillik tufayli asrlar mobaynida xalqimiz saqlab qolayotgan umuinsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda yangi davr boshlandi. Madaniy merosimiz, ma'naviy boyligimiz har tomonlama o'rganishga, uni tahlil qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston istiqloli tufayli yoshlarni milliy ruxda axloqli odobli qilib tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor yana ham kuchaydi. Chunki ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin. Sog'lom avlodni voyaga yetkazish katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq-odob fazilatlari ma'naviyatimizning asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning bu boradagi so'zlari katta salohiyatga ega: «Bugun o'zbekiston Xalqi ulug' ajdodlarining an'alarini, urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o'z qo'lga olib, qaddini rostlab, el-yurtimizda asoyishtalik, barkamollikni millatlararo axillik va fuqarolarning totuligini avaylab-asrab, yangi tarixiy sharoitda o'z kelajagini ko'rmoqda, milliy davlatchiligini tiklamoqda».

Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, ziyoda-sharif, baland daraja beruvchi tarbiyadir. Axloq tarbiyasining maqsadi shaxsni Axloqiy shaqillantirishdir. Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan Axloqiy ong, xislat va xulqni shaqillantirish, Vatanparvarlik, Vatanga muhabbat, o'zbekiston gerbi, bayrog'i madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalarini tashkil qiladi.

Axloq insoniyat ma'naviy madaniyat ko'rinishlaridan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u kishilarning tarixan qaror topgan xulq-atvori va yurish-turishining ifodalaydigan va jamiyat munosabatlarini aks ettiradigan muayyan qoidalar yig'indisidir.

Shu ma'noda axloq murakkab ko'p qirrali jamiyat xodisasi bo'lib, u o'z ichiga odamning jamiyat jamoa va boshqa kishilar bilan aloqalarni belgilovchi qoida va talablarni qamrab oladi. «Axloq» arabcha «Xulq» so'zini ko'plik shakli bo'lib, insonning nafsida, tabiatida xosil bo'lgan va takrorlanadigan ish faoliyatidir.

Odob odamning jamoat, el -yurt orasida o'zini qanday tutishi, muomala qilishi, o'z turmush sharoiti va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi xullas tashqi jixatdan muloyim va yoqimli bo'lishini bildiradi.

Sharq allomalari Axloqiy-tarbiyaviy asarlarining asosini «Qur'oni karim» suralari, Muhammad payg'ambar faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi xadislari, xikmatli rivoyatlar tashkil qiladi.

Yusuf Xos Xojibning «Qudadg'u bilik» didaktik dostonida til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik, axloq-odob haqida xikmatli nasixat bayon etilgan. «Til odobi» bobida bilim egallashda tilning ahamiyati, qissa va mazmunli ko'zlash, til aql va bilim tarjimonidir degan fikrlar bayon qilingan.

Sa'diy Sheroziy «Bo'ston», «Guliston» asarlarida hayotda insonni pok, irodali, kuchli va mag'rur bo'lishi haqida istaklarni ifodalaydi. Sheroziy kishi qadrini. Insonni yerga uradigan ta'ma xasad kabi illatlarni qoralaydi. U yoshlarni halol mehnat qilishga rostgo'ylikka, bilim va hunar orttirishga, go'zal axloqli bo'lishga undaydi.

Kaykovus 44 bobdan iborat bo'lgan «Qobusnoma» asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o'zaro axloqiy munosabatlari, ichki so'qish, qo'pollik kabi yomon odatlardan qaqlanish zaruriyati kabi axloqiy masalalarga urg'u beriladi.

Ahmad Yugnakiyning «Xibatul xaqoyiq» dostoni 14 bobdan iborat bo'lib, unda til odobi, sir saqlash, sahiylik kamtarlik, shukronalik, ta'zim-tavoze', insonparvarlik rizo va itoat, halollik haqida pand nasihatlar berilgan.

A.Navoiy o'zining «Hamsa», «Mahbub ul qulb» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida shuningdek, «Munojot», «Vaqfiya», «Arbain hadis» kabi kitoblari

tarbiyaga oid fikrlarini bayon qilgan. «Mahbub ul qulb» uch qismdan iborat boʻlib, birinchi qism,-har xil toifa odamlar feʼl- atvori va ahvoli, kayfiyati. Ikkinchi qism- yahshi va yomon feʼllar; uchunchi qism- hilma-hil foydalar va qissalar koʻrinishi, yani yahshi feʼllar va xislatlarga oid fikrlardan iborat.

Abduraxmon Jomiyning «Baxoriston» asaridan mutafakkirning taʼlimiy axloqiy qarashlari oʻz aksini topgan.

Bu asarda Jomiy haqiqiy kamolatga erishgan inson haqidagi fikr muloxazalarini bayon etadi. «Bahoriston» asarida yetuk insonga xos axloqiy hislatlar tarannum etilgan.

Yahshilik, saxiylik, shirin-suhanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, doʻstlik, rostgoʻylik, mexnat sevarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga alohida eʼtibor beriladi.

Muhammad Siddiq Qoshgʻariyning /1740-1843/ «Odob as-solixin» asarida insonning xayoti davomida zarur xulq atvor qoidalar oʻrgatish gʻoyasi ilgari suriladi. Unda kundalik turmushimizdagi xar bir yosh egallab olishi zarur boʻlgan zoxiriy /tashqi/ va botiniy / ichki/ odob va axloq qoidalari nimalardan iborat boʻlishi kerakligi va shunda yoshlarning ham oʻqib, barkamol inson darajasiga yetishi taʼkidlanadi.

Axloq tarbiya mazmuni. axloqiy tarbiya maqsadi-axloqiy shakllantirishdir. Shaxsning muxim maʼnaviy sifatlari: Axloqiy ong, xissiyot va xulqini shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, ongli intizom, insonparvarlik va boshqalar.

Vatanparvarlik-Vatanga muhabbat, uning himoyasiga tayyor boʻlishi, vatanning gullab yashnashi uchun mexnat qilishdir.

Mehnatga maʼsuliyatli munosabat-begʻarazlik, mexnat majburiyatlariga ongli, maʼsuliyatli yondashish, intizomlilik, ijodiy izlanish, tashabbus, faoliyat natijalarini oldindan, mustaqil qaror qabul qilish, oʻrtoqlariga yordam berishga tayyorgarlik, mexnatni qadr qimmatini anglay bilish, kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Ongli intizom-burchni bajarish, shaxsiy va ijtimoiy, davlat va jamoatchilik majburiyatini kam-ko'rsiz bajarish hamda ijtimoiy hayotda kishilarga mehnatga va jamoat mulkiga jamiyat qabul qilgan hatti-xarakatlar me'yorida amal qilish tushuniladi.

Axloqiy tarbiya mazmuni avvalo o'quvchilarning amaliy faoliyatida o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarda darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda yahshi xulq-atvor fazilatlari, xushmuomalalik, ota-ona xurmat, kattalarni siylash, xizmatlarida bo'lish, oq ko'ngillilik rahmdillik, saxiylik, xallolik, to'g'rilik, imon-e'tiqodlilik, el-yurt, vatanga muhabbat, unga sadoqatlilik, ishbilarmonlilik, mehnatga ixlosmandlik kabi fazilatlarni tarbiyalash axloqiy tarbiya mazmunini tashkil qiladi.

Xalq og'zaki ijodida axloqiy tarbiya. Xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri hisoblangan afsonalarda ta'lim tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlar va g'oyalarni uchratishimiz mumkin. Afsonalar qahramonlari yahshilik uchun yomonlik bilan nur uchun zulmat bilan kurash olib boradigan va o'z siymosida yukori darajadagi axloqiy sifatlarni birlashtiradilar. Eng qadimgi yodgorliklarda «Avesto»da, Firdavsiyning «Shoxnoma» asarida-katta tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lgan badiiy g'oyalar o'z aksini topgan.

Shuningdek, xali og'zaki ijodiyotining boshqa janrlardagi asarlarda ham odob-axloq tarbiyasiga oid pedagogik g'oyalar, qarashlar ifodalangan.

Masalan: O'zbek xalq maqollarida ona vatan haqida oila va farzand haqida, odob tarbiyasi, odobsizlik haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. «Zumrad va Qimmat», «Dono qiz», «Ilm afzal» kabi xalq ertaqlarida, «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlarda, «Xotamnoma» kabi qissalarda xalq pedagogikasining boy tajribasi o'z ifodasini topgan.

Axloq-odob tarbiyasi turli Xalq bayramlarini o'tkazishda, marosimlar, xalq o'yinlarida ham amalga oshgan.

Bayramlar: Navro'z, Ro'za Hayit, Qurbon Xayit, to'y, to'yona, sovchilik, qunoq va boshqalar.

Marosimlar: tavallud, beshik to'y, alla aytish, quloq tishlatish, ziyorat, xayr sadaqa ibodat va boshqalar.

Shunday qilib o'zbekiston istiqlol tufayli yoshlarni milliy ruxda axloqli odobli qilib tarbiyalash masalasiga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchaymoqda.

Chunki ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat ko'rishlari mumkin.

O'zbekiston istiqlolini mutaskamlashda va uni rivojlantirishda ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish va ularni axloq-odob haqidagi milliy urf-odatlarimizni shakllantirishimiz zarur. Zero Xalqimiz qadim-qadimdan amal qilib kelayotgan axloq-odob fazilatlarini ma'naviyatimizning asosidir.

2.2. Mehnat tarbiyasi

O'zbek xalqi asrlar davomida mehnat insonning moddiy va ma'naviy ehtiyoji ekanligini tushunib yosh avlodni mustaqil xayotga tayyorlashga alohida e'tibor beradi. U o'z hayotida turmush kechirish uchun ishlab chiqarish vositalarni yaratish zarurligini turmushda o'z talablarini kondirish uchun mehnat qilish keraqligini anglatadi. Mehnatni shu ma'noda anglash qadimgi jamiyatga xos asosiy xususiyat bo'ladi. Davr o'tishi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zgarishlar yuz berishi aqliy mehnat tarbiyasi jitmoniy mehnat tarbiyasidan ajraldi. Natijada mehnat va mehnat tarbiyasiga munosabat o'zgardi, bolalarni turli ijtimoiy mehnatga tayyorlash birinchi o'rinda qo'yildi. Inson va jamiyatning yashashi barqarorlashishi uchun mehnat qilish, mehnatni sevishtirish kamolotining me'yori bo'ldi, mehnat ishtirok etish kalomatlik vositasi hisoblanadi. Bu g'oyalar xalq yaratgan «Mehnat-farog'at chirog'i», «Ish-insonning gavhari», «Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam, inson mehnati bilan», «Odamni mehnat bezaydi», «Mehnat hurmatning toji», «Yer Xazina mehnat kaliti», «Yigit husni mehnatda» kabi maqollarda o'z ifodasini topgan.

Mehnat insonni uch balodan: yurak siqilishi, axloqiy buzilish, muxtojlikdan saqlaydi. Mehnat qilmaganlarga, mehnatni sevmaganlarga, boshqalar mehnatini tatimoqchi bo'lganlarga salbiy munosabatlarni «Bekorchidan xudo bezor», «Tekunxo'rga shafqat yo'q», «Baxt yalqovga begona» kabi maqollarda, bir qancha

xikmatlarda o'z aksini topgan. (Masalan: «Yalqov ishyoqmaslar ikki farzand yetishtiradilar: zorlik, badbaxtlik», «Mehnatni sevgan har kishi har turli noqobil ishlardan tortinmaydi» va x.k). Turli kasblarga mehr-muhabbat tarbiyalashda kasb-xunar tanlashga yo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash bu yosh avlodni xalq xo'jaligi va madaniyatining eng muhim tarmoqlari bilan xalq xo'jaligi va madaniyatining ayrim kasblarga ehtiyojlari bilan tanishtirishga muvofiq iboratdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash tizimi o'z ichiga kasbga oid axborot, maslaxatlar kasblarni tanlash va kasbga ko'nikish kiradi.

1. Kasbga oid axborot berganda ilg'orlar bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarishga ekskursiyalar tashkil qilish, maktablarda kasb tanlash kabinetlari ishlarini uyushtirish, shu kabi egallash uchun lozim bo'lgan xislatlarni shakllantirish.

Kasb bo'yicha maslaxatlar-turli predmetlarni o'rganish jarayonida turli kasbga xususiyatlari, ularning xalq xo'jaligi o'z shaxsiy moyllari, qobiliyatlari va imkoniyatlari bo'yicha ish olib boriladi.

Kasb bo'yicha tanlash. Pedagog, psixolog, sotsiolog, ishlab chiqarish xodimlari bilan birgalikda konkret kasbga yo'naltiriladi.

Ajdodlarimiz azal-azaldan xunarmand, ijodkor, mirishkor bo'lishgan (naqqoshlik, zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, sopoldo'zlik).

Xalq xunarmandchiligi: beshiksozlik, sadiksozlik, jaydari, qo'qon, yassi va baland zinali aravalar yasash, pichoqchilik, o'yma kursi va stollar, chorpoyalar, guldonlar-shamchiroq, obdasta-yu jomlar yasash, kigiz bosish, gilam to'qish, polo to'qish, yigirma tikish savatchilik va buyrachilik, zardo'zlik, kashtachilik, zargarlik, kulolchilik, kandakorlik, tosh va kuchi o'ymakorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, ipakchilik, mato to'qish, temirchilik, duradgorlik kabilar o'zbeklar xayotining o'zgarmas qismi hisoblanadi.

Bu soxada xozirgi davrdagi dolzarb vazifa yoshlarni o'zbek xalq xunarmandchiligining ajoyib an'alarini davom ettirishga da'vat etishdir. O'quvchilar xalq xunarmandchiligi bilan shug'ullanish jarayonida xunar o'rganish bilan birga tevarak atrofdagi go'zallikni ko'ra bilishga ularni odobi mexnatsevar

qilib tarbiyalashda, ijodkorlik, san'atga bo'lgan qiziqishni orttirishda yordam beradi.

Maktabda mexnat darslari, to'garak mashg'ulotlari jarayonida bolalar xalq amaliy sa'nati sir asrorlarini bilib oladilar. Qadimdan xalqimizda o'g'il va qiz bolalarga duradgorlik, g'isht teruvchilik, beshikchilik, sandiqsozlik, etikdo'zlik, telpak, cho'girma, po'stin tikish, ganchkorlik, naqqoshlik, mol, ko'y va parranda boqish, dehqonchilik ishlariga yordamlashish, bozor o'char qilish, bilim olish, ro'zg'orni pul bilan ta'minlash, kasb-xunar egallash, taom tayyorlash, mahalladagi marakalarni joyiga ko'yish, xasharga borish, O'tin tayyorlash, uyni elektr asboblari yengil ta'mirlash va x.k ishlar bilan odatda shug'ullanadilar.

Uy ichida xotin-qizlarning vazifasi: odob-axloq saqlash, poklik, bichiqh-tikish, taom tayyorlash, tabobatda xabardor bo'lish, bemorlarga qarash hisoblanadi.

Bu kabilarga yoshlikdan O'rgatish ota-ona burchi, bu-kizlar baxti, saodati asosidir. Shuningdek bolaning kuchi, yoshi, zehniga qarab yurt, uy tuta bilish, tikish, kiyinuv, chkan-tukan, tartib bilan ishlash, yahshi xulq shakllantirish, osh pishiruv saboqlarini oshirish, bozor xarajati ishlari, xunar egallash, tikuv ishlari, kir yuvish, dazmollash, mexmon kutish, xol so'rash, bola tarbiyasida ishtirok etish, jamoa ishlarida qatnashish, gigiyena qoidalariga rioya qilish kabilar oilada o'rgatiladi. Xozirgi vaqtda milliy maktablarda mexnat tarbiyasi tizimi saqlanmoqda. Bu tizim o'z ichiga tubandagilarni oladi:

- a) O'quv mexnatiga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirish.
- b) Maktabda darslar davomida va mexnat tayyorgarligi jarayonida politexnik bilimlar va ko'nikmalarning asosiy egallash;
- v) Mexnat ta'limi;
- g) Ijtimoiy foydali mexnat;
- d) Unumli mexnat;
- e) Sinfdan tashqari ish;
- j) Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida mexnatni sevish, qadrlarga o'rgatish;

z) Milliy o`yin, marosimlar, «Xasharlar», obodonlashtirish va yig`im-terim ishlarida qatnashish;

i) O`z-o`ziga mexnat qilish, ota-onalarga yordam berish, uyni yig`ishtirishda yordam berish, saranjom-sarishtalikka o`rganish va x.k.

I. O`quv mexnati.

II. Mexnat ta`limi va o`quvchilarning unumli mexnati.

III. Ijtimoiy foydali mexnat.

O`quvchilar mexnat faoliyatiga qo`yiladigan talablar:

1. Mexnat foydali yo`nalishli bo`lishi kerak.
 2. Mexnat jarayonida o`quvchilar tashabbuskorlik, ijodkorlik bilan yondashishlari kerak.
 3. Mexnat jamoa shaklida tashkil qilinishi kerak.
 4. Mexnat rang-barang, turli-tuman bo`lishi kerak.
 5. Mexnat o`quvchilarning kuchiga, imkoniyatlariga yosh va individual xususiyatlariga mos bo`lishi kerak.
 6. Mexnat jarayonida rag`batlantirish va jazolash metodlaridan oqilona foydalanishlari kerak.
 7. Mexnatga bolani barvaqt jalb qilish uning samaradorligini ta`minlaydi.
 8. Mexnat dam olish bilan almashtirib turilishi maqsadga muvofiqdir.
 9. Unumli mexnat bolaning moddiy manfaatdorligini esdan chiqarmasligi lozim.
- Shunday qilib mexnat tarbiyasi fan asoslarini o`rganish jarayonida o`quvchilarni olgan bilimlarining aniq maqsadga yo`nalganligini ishlab chiqarish jarayonining ilmiy asoslarini bilish va kasbiy qizisishlarni rivojlantirishni ko`zda tutadi. O`quvchi butun o`qish yillarida inson mexnati bilan yaratilgan boyliklar bilan tanishadi, bular faqat erkin mexnat qila olganlaridagina yuzaga kelishini tushunadi.

2.3. Nafosat tarbiyasi

Ta`lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o`z diqqat-e`tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruxga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy kadriyatlarni qaror topishga xizmat qiladi. Ma`lumki, tarbiya inson ongiga xatti-xarakatiga, xulq-atvoriga ta`sir o`tkazishini O`z oldiga

maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifalarni tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy ijtimoiy jixatdan ahamiyatga molik xodisa anglatadi.

O'zbekiston mustasil davlat bo'lib, qaror topayotgan hozirgi paytda estetik tarbiyaning mavqiei yana ham ortib boraveradi.

1. Mustasillik sharoitida inson omilning ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti, xayotning barcha javxalarida faoliyat ko'rsatayotgan odamlarning ezgu fazilatlarini ongliligi faolligi ijodiy yaratuvchi sobiliyatmi sezilib turibdi.
2. O'zbekiston umumiy madaniyat darajasi yuksalib borish jarayonida yangi texnika va texnologiya ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy usullari tabora takomillashib borayapti.
3. Hozirgi davr ilmi-texnik inqilobi sharoitida elektronika avtomatika kibernetika informatika kabi bilim soxalarining rivojlanishi ishlab chiqarish soxasini tubdan sayta ko'rishga imkoniyat yaratib berayapti. Bu xol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruxiy xolatining ham tubdan o'zgarishini kasbkorlik ijtimoiy ruxiy ahlosiy va estetik xolatlarning vujudga kelishini taqozo etadi.
4. Radio, televideniya, kino ommoviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rin olishi natijasida badiiy axborot xajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez suratlarda o'sishini ta'minlaydi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin silinar ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida intiqo etilar edi. Ba'zan estetik tarbiyasiga odamlarda yuksak estetik did farosatni shakllantirish sifatida saralar edi. Bularning barchasi badiiy estetik tarbiya vazifasi va maqsadlari doirasiga kiradi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib u estetik tarbiyaning mazmunini va maqsad qo'llanishini to'la ifodalaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bu san'at tabiat va jamiyat xodisalaridagi nafosatlilikni idrok etish tushunish ijod qilish va hayotini estetik qonun qoidalar asosida tashkil qilishdir.

Estetik tarbiya vositalari xilma xilligi bilan ajralib turadi. Hayotimizdagi estetikaning ko'лами kengaya borgani sari estetik ongimiz chegaralari ham kengaymoqda. Shu munosabat bilan estetik tarbiya vositalari ko'лами ham rivojlanib bormoqda. Estetik tarbiya asosiy vositalariga tubandagilar kiradi:

1. Adabiyot va san'at-adabiyotning barcha janrlari /xalq og'zaki ijodi, she'riyat, dramaturgiya, preza/ san'at turlari/tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati, me'morchilik, musiqa, teatr, kino, raqs, sirk, televideniye, foto, estrada va xakozo/.
2. Tabiat /jonsiz tabiat, o'simlik va xayvonot dunyosi/.
3. Mexnat/mexnat sharoitlari, jarayoni, qurollar va mahsulotlar/.
4. Bilish go'zalligi/ta'lim, ma'lumot, mustaqil o'qish, fanni o'rganish jarayoni, kashfiyotlar kiradi/.
5. Turmush go'zalligi /buyumlar go'zalligi, moda va x.k/.
6. Muloqat /va til/ go'zalligi.
7. Jismoniy madaniyat va sport /jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari, munobasalari estetik talablarga javob beradigan xolda tashkil etish, badiiy gimnastika, fristayl kabi badiiy xarakterga ega sport turlari.
8. O'yinlar /didaktik, xalq o'yinlari va x.k.
9. Xulq atvor / ishlab chiqarish, shaxsiy, jamoa joylarida.
10. Din /so'z san'ati, musiqa, arxitektura, xalq Amaliy san'ati asarlaridan foydalanish/.
11. Milliy urf-odatlar, udumlar, qadriyatlar. Bayramlar.
12. O'quvchilarning aktiv estetik faoliyati.
13. Bolalar turmushi estetikasi.
14. Tevarak atrofdan olinadigan taasurotlar.

Nafosat tarbiyasining mazmuni, shakl va usullari. Estetik tarbiya vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadalridan kelib chiqsan xolda, bolalarning yosh imsoniyatlariga qarab belgilanadi. **Estetik tarbiya oldida quyidagi vazifalar turadi:**

1. Bolalar hayotidagi voqeyelikdagi go`zallikni tushunishga, sevishta tabiatda va turmushdagi mehnatda ijtimoiy hayotdagi kishilar xatti-xarakatida bolalarga tushunarli bo`lgan go`zallikni ko`ra bilishga o`rgatish, ularda estetik xis, did, munosabatini tarbiyalash, kuchlari yetganicha xayotda go`zallik yaratishda faol ishtirok etish.

2. Bolalarni badiiy ijodiyotning turli janrlarida yaratilgan san`at asarlarni ko`rish, tushunish va sevishta o`rgatish orqali o`zlarida estetik ong asoslarini shakllantirish chiroylilikni xunuklikdan, gamginlikni xursandchilikdan farqlay olish ranglarni shakl tovushlari bir-biridan ajratib bilish kabi sensor etalonlari bilan tanishtirib.

3. Bolani san`atning turli soxalari: o`yin, ashula, she`r, o`qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat kabilardan yana ham faolroq harakat qilish va o`zini ko`rsata bilishga o`rgatish. Bu orqali bolalarda badiiy ijobiy qobiliyatni, xayolni o`stirish, ko`rish xotirasini rivojlantirish.

4. Estetik tarbiya mazmunini mukammallashtirish shart-sharoitlari tubandagilar:

1. Estetik sikl predmetlari dasturini milliy maktab talablari asosida mukammallashtirish. Ashulla va musiqa, tasviriy san`at, o`zbek xalq amaliy san`ati, o`zbek adabiyoti dasturlarida o`rta Osiyo mutafakkirlari va ma`rifatparvarlarining asarlari munosib o`rin olishi lozim.

2. San`at sikli predmetlarini o`rganish shakl va metodlarini milliy qadriyatlar, ma`naviyat nuqtai nazaridan ko`rib chiqish. Ustoz- shogird sistemasini zamonaviy talabga mos qilib mukammallashtirish.

3. Yangi darslik, xrestomatiya, o`quv metodik qo`llanmalar yaratish. Ularda o`rta Osiyo mutafakkirlari, ma`rifatparvarlari, san`atkorlarining ijodiy munosib o`rin olishi lozim.

4. O`quv fanlar ichida fanlararo aloqalarni unumdorli qilish.

5. Dars jarayoni bilan sinfdan tashsari ishlarni uyg`unlashtirish, ularni yagona prinsiplar asosida amalga oshirish.

6. Maktabdagi barcha fan o`quvchilari/shu jumladan/ shu jumladan adabiyot, musiqa, tasviriy san`at/, tarbiyalarining madaniy estetik saviyasini oshirishga aloxida e`tibor berish.
7. Badiiy ma`lumot, ta`lim va estetik tarbiyaning moddiy texnik asoslarini ta`minlash.
8. O`quvchilarni badiiy estetik rivojlanganlik /tarbiyalanganlik/ darajasini ilmiy asoslangan me`yorlarni ishlab chiqish.
9. San`at orqali badiiy tarbiyalash bilan bog`liq vositasida estetik tarbiyalash o`rtasidagi aloqalarni mustahkamlash.
10. 1-9-sinf o`quvchilarining o`zbekiston respublikasi tarixi, madaniyati, ma`naviyati, milliy urf-odatlarini xisobga olgan xolda axloqiy estetik idealarni shakllantirish.
11. Estetik tarbiya vazifalarni o`quvchilarda ma`naviyat shakllantirish ishlariga xizmat qilishini ta`minlash.

Nafosat tarbiyasi maktabda o`sitiladigan barcha darslar jarayonida olib boriladi. Lekin, xar bir predmetning xususiyatiga qarab estetik tarbiya vositalari usul va metodlari o`ziga xos bo`ladi. Masalan, tasviriy san`at darslari narsaning o`ziga qarab rasm chizish, dekorativ rasm chizish, tema asosida rasm chizish, tasviriy san`atdan suxbatlar kabi turlarga bo`linib, xar bir rasm chizish darslarida nafosat tarbiyasining o`ziga xosligi mavjud.

Tasviriy san`at darslarining asosiy vazifalari: o`quvchilarning san`at bilan muloqatda bo`lishi, rassomlik xaykaltaroshlik, arxitektura, grafika, xalq amaliy bezak san`ati soxasida faoliyat, ko`nikma va malakalarni egallash, tasviriy san`at tarixi haqida ma`lumot berish, atrofdagi xayot va san`atni estetik idrok qila bilishdir. o`z xayotini go`zallik sonunlari bo`yicha tashkil qilish va h.k. xisoblanadi.

Musiqa darslari musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg`usini beradi. Musiqa asariga qilingan axloqiy estetik mazmundan xuzurlanish qobiliyatini shakllantiradi.

Musiqaviy mashg'ulot turlari: xo'r bo'lib ashulla aytish, musiqa savodi, musiqa asarlarini tinglash, ijrochilik faoliyati, musiqaga jo'r bo'lib xarakat qilish va x.k. Bu mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida ham estetik tarbiya vositalari ham turlicha bo'ladi.

Maktabda dars jarayonida olib boriladigan nafosat tarbiyasining davomi sinfdar va maktabdan tashqari ishlari xisoblanadi. Bu ishlar jarayonida borliq va san'atga nisbatan estetik munosabat shakllantiriladi. Shaxsning ma'naviy boyishi ta'minlanadi, o'quvchilar bo'sh vaqtida foydali ishlar bilan to'ldiriladi, yoshlarning qobiliyatini namayon qilishga imkoniyat tug'dirilib beriladi.

Maktabda sinfdan tashsari ishlar adabiyoti va san'ati turlari bo'yicha to'garaklar, fakultativlar, xo'r jamoasida, badiiy xavaskorlik teatri, tasviriy san'at studiyalarida olib boriladi.

Ayniqsa bu sohada televideniyaning roli bebaho.

Maktabda o'tkaziladigan shoir yozuvchi va san'atkorlar bidan uchrashuv, kino va teatr asarlarini jamoa bo'lib tomosha silib, keyin muxosama qilish, rassom va xaykaltorashlar ustaxonasiga ekskursiyalar uyushtirish, devoriy gazeta, stentlar chiqarish, maktab ichki radio va televideniya ishlari, bolalar ishlaridan ko'rgazmalar konkurslar tashkil qilish, ijrochilik faoliyati kabilar estetik tarbiya bo'yicha sinfdan tashsari ishlarga kiradi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati estetik tarbiyaning bebaho vositasi hisoblanadi. Ganch o'ymakorligi, nassoshlik, yog'och o'ymakorligi, to shva suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoschilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zchilik bilan tikish san'ati necha asrlardan buyon o'zbeklar bir sancha avlodning estetik tarbiyalash vositasi bo'lib kelmoqda.

2.4. Jismoniy tarbiya va iymon-e'tiqod tarbiyasi

Jismoniy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Salomatlikni mustahkamlash, organnzmni chinistirish va o'situvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish.
2. Xarakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish.

3. Jismoniy tayorgarlik, sport turlariga bo'lgan qiziqish va takomillashtirish.
4. o'suvchilarda axlosiy, irodaviy, estetik va asliy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish.
5. Jismoniy tarbiya va sport mohiyati hamda ijtimoiy mavqei haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lish.
6. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga ehtiyojni tarbiyalash.
7. Jismoniy madaniyat asoslarini shakllantirish.

Ma'lumki, X asrda jismoniy mashslarning kishi organizmiga ta'siri to'g'risida muayyan bilimlar paydo bo'lgan. Abu Ali Ibn-Sino jismoniy tarbiya to'g'risidagi masalani fan nuqtai nazaridan mufassal ishlab chiqdi va ilmiy jixatdan asoslab berdi.

Iymon, ishonch, e'tiqod, shuningdek iymonlik va iymonsizlik istiloxlari inson ma'naviy axloqiy sifatlarning ifodasi bo'lib, uning ijtimoiy-insoniy va biologik-xayvoniy mohiyatlarini belgilab beruvchi mezondir: Iymonli odam insofli, yuksak ma'naviyat sohibi bo'lib, iymonsiz odam uning muqobilidir, ya'ni xudbin munofiq bo'lib, o'z nafsining qulidir. Tabiatda barcha tirik munofiq bo'lib, o'z nafsining qulidir. Tabiatda barcha tarik mavjudodlarning gultojisi va oqibati sifatida namoyon bo'lgan inson mohiyatidagi nodir xodisa-rux (aql) muayyan g'oyani singdirib, muqaddas qadriyatlarga ixlos qo'yish, e'tiqod qilishga muxtojdir. Uzoq tariximiz xam, shu kunlardagi tajribadan xam odam tanasi oziq-ovqat iste'mol qilishga nechog'lik ehtiyoj sezsa, uning ma'naviy dunyosi xam muayyan g'oya, dunyo qarash atrofida shakllanadigan iymonga shunchalar muxtojligidan dalolat bermoqda. Inson muayyan tarixiy va ijtimoiy sharoit xamda bu sharoitdagi-tarbiyaning maxsuli degan qarash mavjud. Bunday qarash to'g'ri, ammo bir yoqlamadir. Chunki bu vaziyatni yaratuvchi, uni insoniylashtiruvchi odamlarning o'zlari ekanini anglab yetish kerak. Shunda tarbiyachilikning o'zi tarbiyalangan, iymon-e'tiqodli, pokiza qalbli bo'lishga erishish lozim bo'ladi. Ijtimoiy muxitning o'zi jamiyatlashgan inson shaxsini qaror toptirishga xizmat qiladigan darajada bo'lmog'i lozim. Tafakkur sohibi yosh odamning hayoti o'z atrof-tevaragidagi, «odatiy ong», «odatli qiliqlar» ta'siriga beriluvchandir. Agar

ijtimoiy muxit pok, sog'lom bo'lsa, «odatli ong», «odatli qiliqlar» xam sog'lom ruxdan oziqlanib to'g'ri yo'nalish olsa, insonning barkamol shaxs bo'lib yetilishi uchun yordam beradi. Bordi-yu, katta-kichik ijtimoiy muhitda nosog'lomlik, nopoklik qilsa, bunda odamda g'ayriinsoniy sifatlar qaror topadi.

G'ayriinsoniy muhit g'ayriinsoniylik-o'g'rilik, bosqinchilik, poraxo'rlar, foxishalar, yulgichlar, tekinxo'rlarni yuzaga keltiradi. Albatta, insondagi biologik va ijtimoiy irsiyatlarning roli xam bo'ladi. Irsiyatga xalol-poklik ruxi singan odam xar qanday ijtimoiy muxitda xam o'zini yo'qotmaydi. Aqlli, farosatli odamzotiga mansub ekanligini unutmaydi. Xar qanday sharoitda u insoniylikka, iymonga sodis bo'lib qolishga intiladi va unga erishadi. Ammo, biologik va ijtimoiy irsiyat xal qiluvchi emak, balki yordamchi omildir. Xal qiluvchi omil insonni kurshab olgan kichik muxit (oila, qarindosh-urug', yaqin kishilar, joyi, o'quv va mexnat jamoasi) ning ma'naviy-aqliy darajasi va katta muxitdagi (jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar) ruxiy xolatdir. Iymonga insonning muayyan ruxiy xolati, muayyan g'oyaga, qadriyatga bo'lgan komil inson, ixlos, e'tiqod sifatida saralar ekan, odamni jamiyatlashgan inson shaxsiga aylantirish uchun unitilayozgan ko'pgina tarixiy tajribalarni tiklash lozim. Har bir kishining yoshligidan kichik muxitda olgan tarbiyasidan kelib chiqadigan va o'zi ixlos kuygan muayyan qadriyatlarga bo'ladi. Iymonsiz odam vijdon, insof, diyonat degan fazilatlardan mahrum, uning ongi, xis-tuyg'usida xayvonga xos bo'lgan o'z xuzur halovatini ko'zlashdan boshqa qadriyat qolmaydi. Bunday odamning « falsafasi» oddiy: qaysi yo'l usul bilan bo'lsada yahshi deb, yahshi kiyinib, yahshi yashsa bas. O'g'irlik, boksqnchi, foxishalarning « falsafasi»ga xam poraxo'r, ta'motir oziq berib turadi. O'g'ri, rakatchi shunday fikr yuritadi: « Mana poraxo'r iroda tashkilot, bankda o'tirib, «qonuniy» tarzda odamlarni shilyapdi, o'zigina emas, bola chaqasi bilan huzur halovatda yashayapdi. Tunu-kun jafo chekib mexnat qilayotgan odamlarning esa kosasi oqarmayapti. Demak, o'g'irlik, talonchilik, poraxo'rlik qilmaqdan yashash mumkin emas»... shu ishonch uning ongiga singach, xis-tuyg'usidan mustahkam o'rin olib, uning birovlarini qahshatishdan, shavqatsizlikdan rohat oladi, zavqlanadi.

Bunday husurli odamlarning o'ziga xos xolati muayyan qarashlari, intilishlar doirasida shakilanadigan ong va xis-tuyg'usi mavjud. Shundan kelib chiqib odam o'z irodasini yo'naltiradi. Bu ruxiy xolatni iymonsizlik, e'tiqodsizlik natijasi, deb qarash kerak. Chin iymon va e'tiqod faqat umuminsoniy qadriyatlar atrofidagina shakllanadi. O'g'irlik, poraxo'r, qotillik va xakoza kabi insoniy xatti-xarakatlar zaminida bir safga qo'yib, iymonsiz deb atashga haqimiz bor. Iymonsiz odamlar jamiyatda bor ekan, demak iymonli odamlarning ularga qarshi kurashda birlashishlari, insonparvar, demokratik, huququy jamiyatni barpo qilishda, yoshlar iymonli-e'tiqodli qilib tarbiyalashda faol qatnashishlari darkordir. Islom iloxiyati (falsafasi)da iymonga istiloh sifatida qaraladi va ko'p qirrali tahlil etiladi. Qur'onda imonli odamlarning belgilari quyidagicha tavsiflanadi: ular mo'min, royish, yuvvosh, itoatkor, quruq ko'zlardan qochuvchi, poklik, halollikka intiluvchi, o'z va'dalari, ibodatiga amal qiluvchi va shuning uchun ham jannat vorislari hisoblanadi. Yoki manabu fikrlariga e'tibor bering: «Yuzlaringizni Mashriq va Mag'rib tamolnlariga buraverishingiz yahshi emas, balki Oллоhga, ohirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, Payg'ambarlarga iymon keltirilgan, o'zi yahshi ko'rib turib molini qarindosh urug'lariga, tilanchi-gadolarga va qullarni ozod qilish yo'lida beradigan, namozni to'kis ado qilib, zakotni beradigan kishi va ahdlashganlarida ahdlariga vafo qiluvchi og'ir-yengil kunlarda va jangu-jadal paytida sabr-toqat qiluvchilar yahshi kishilardir ana o'shalar chin imonli kishilardir va ana o'shalar aqil taqvodorlardir». Demak, iymon bu insonni ichki tuyg'usi, ongli ravishda o'z zimmasiga olgan ahdu-paymoni, bunga so'zsiz rioya qilish, hayrli ehsonli bo'lish va amaliy ishlar bilan g'oyaviy nuqtaiy nazariga sodiq ekanligini isbotlab berish va xakoza.

Islomda iymon tushunchaki anashu tariqa amaliyot bilan bog'lanadi. Iymon amaliy faoliyat, ma'naviy axloqiy sifatlar, fazilatlar bilan qadrli, degan g'oya ilgari surilib, islomda chin iymonli hisoblanganlar rag'batlantirilib, yahshi odamlar qatoriga qo'shiladi, ularga jannat va'da qilinadi.

Iymon inson ongining ajralmas xususiyati, insonning olamni, o'z-o'zini anglash usuli bo'lgani sababli mafkuraviy kurash, pridmeti ham hisoblanadi.

«Iymon» ko`zining jiddiy bir ilmiy atamaga, tushunchaga aylanmagani, mafkuraviy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarimizda muayyan g'oya, timsol kerakligi g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olinmayotir. Ba'zilar iymonni ko'pgina diniy yoki din ma'nosida tushunadilar. Yana boshqalar iymonga diniy maqlas sifatida karaydilar, ba'zilar iymonni g'arb falsafasining soxta tushunchasi deb biladilar. Iymon insonning, uning ongining ajralmas xususiyati bo'lib, diniy iymon umuman iymonning bir turi sifatida talqil etilmokda. Umuman o'zbek ijodiy ziyolilari orasida «Iymon» ko'zi orqali ifodalanadigan dunyo qarashga oid mazmunni tushunmaqlik oqibatida uni qulay diniy ma'noda talqin etish tez-tez uchrab turadi. Ularni tushunish mumkin, chunki imon ko'zi orkali ifodalangan fikrning ilmiy-falsafiy mazmuni halagacha chuqur etilmagan.

Ma'naviy-Axloqiy, mafkuraviy tarbiyaning bundan buyongi taqdiri va samarasi ko'p jihatdan mustaqqil davlatimiz yoshlarini imonli shaxslar, imonli fuqaroning tarbiyalab yetishtirishimizga bog'liq.

2.5. Ekologik tarbiya.

Ekologiya, atrof-muhit, jonli-jonsiz tabiat, ekologik ong ekologik madaniyat, kamolot, shallar, usullar. Ekologik tarbiya ekologiya fanini maqsadini amalda yuzaga keltirish, atrof-muhitni biz xoxlagan darajada tabiiyroq, ekologik toza bo'lishidagi ishlarni o'rgatadi ko'rsatmalar beradi. «Ekologiya» yunoncha so'z bo'lib tirik mavjudodlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga kelgan qonuniyatlarini o'rganadagin fandir. Ekologiya fani qadimdan yuzaga kelgan fan emas. Ekologiya fani insonni qiziqishi, bilishdagi fikr mulohaza yuritishlardan kelib chiqqan fan emas, ekologiya fani zaruriyatidan inson o'z manfaatini ko'zlab uni tabiiy ko'rinishlarini buzib, undan to'xtovsiz foydalanib uni ko'rimsiz bo'lgan ahvolga solib qo'ygach va endi yana o'z manfati uchun kelajak avlod oldidagi o'z burchini xis etgan xolda tabiiy ko'rinishini o'z xotasida xulosa chiqqan xolda tiklash zaruriyatidan kelib chiqqan fan deyish mumkin.

Ekologiya fani tabiiysi, yevropada kelib chiqkan. Chunki insoniyatning o'zi ijtimoiy rivojlanishida, atrof muhitni tabiiyligini ta'siri dastlab yevropada edi. Chunki insonni ijtimoiy ong rivojlanishi, inson manfati qilingan ishlab chiqarishdagi yutuqlari, jamiyat rivoji dastlab yevropada edi. Ekologiya atamasini 1866 yilda nemis zoolog olimi Geksel tomonidan fanga kiritilgan edi. Yaqin vaqtlargacha bu atama faqat mutaxassislargagina ma'lum edi. Endilikda atrof-muhitga tabiat boyligiga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi.

Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarda muammolarini yechish zarurati tug'ildi. Shu borada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish asosiy ishlardan biri bo'lib qoldi. O'quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirish, bularda tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va maktablar amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi. Chunki insonning ongi oshgan sari progressiv jamiyat ko'rinish bergan sari, insonning yer yuzasidagi roli oshgan sari yer yuzasi uni soni oshgan sari tabiatdan faqat foydalanigina qolmay, undan keyin foydalana borish uchun endi u haqda o'ylash, fikrlash, unga munosabatni to'g'ri yo'lga qolish kerak bo'lib qoldi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 18 moddasida yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini qo'riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko'paytirib borishni ta'minlash insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar ko'rish zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan «Tabiat muxofaza qilish to'g'risida» gi qonuni, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'dbik etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ning ishlab chiqilishi, Eqosan jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, umum ta'lim maktablarida ham ekologik yo'nilishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarining shakllanishi yosh avlod maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruxida tarbiya berishga astoydil kirishilganini ko'rsatadi. Maktabni

bitirib mustaqil hayotga qadam qo'ygan har bir yosh, qanday ixtisos egasi bo'lishidan qat'iy nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Tabiatni muhofaza qilish xozirgi zamonning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolganini o'quvchi ongiga 1-chi navbatda singdiriladi. Haqiqatan tabiiy boyliklardan haddan tashqari darajada ko'p foydalanish, yangi yerlarni rejasiz o'zlashtirish oqibatida ekologik muvozanat keskin o'zgardi, atrof-muhit ifloslandi. Ayniqsa paxta yakka xosimligi, qishloq xo'jaligining noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'g'itlarni me'yoridan ortiq ishlatilishi tabiat muammolarini ko'payishiga sabab bo'ldi. Bu xolat hayvonot olamiga ham o'simliklar dunyosiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Keyingi 30 yil ichida tabiiy boyliklardan shunchalik ko'p foydalanilganki, bu butun insoniyat tarixi davomida foydalanilgan tabiiy boyliklarga tengdir. Demak jamiyatni iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Aholi sonining tez o'qib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Faqatgina aholini yer suv energetika oziq-ovqat bilan ta'minlash butun Dunyo bo'yicha global muammoga aylanib bormoqda. Tabiatga zarar keltiradigan ko'pgina zavodlarning osar suvga yaqin joylashganligi sababli suv xavzalari ifloslanmoqda. Markaziy Osiyo xududida yashayotgan fukarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'payib bormoqda. Orol bo'yi rayonlari Qoraqalpoqg'iston Rekrpublikasi, Xorazm viloyatida turli xil kasalliklar ko'p tarqalmoqda. Shu tariqa yer qirrasida insonning farovon yashashi endi ekologik muammolarni yechiqhga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammolarning ilmiy iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki ekologik muammo inson faoliyati natijasida kelib chiqadi. Eng muhimi ayni pedagogik-ekologik muammo yo'lga qo'yilsa, boshqa ekologik muammolar yechilishiga zamin yaratiladi. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda, tabiat bilan inson

oraqidagi munosabatni ifodalovchi bilimlarni o`quvchilarga yetkazish tushuniladi. Ekologik tarbiya atrof-muhit nisbatan munosabat tarbiyasidir. Ekologik ta`lim-tarbiya umumiy ta`lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo`lib, maktabda barcha fanlar qatori o`qitiladi. Uning bosh maqsadi yosh avlodda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy ong darajasi past bo`lgan yuqori tabaqa Xalq uchun ikkinchi darajali bo`lgan Xalqlar ekologik tushkunlikdan osonlikcha chiqib keta olmaydi. Ular tabiat haqida kuyunuvchilar bo`lsayam qilayotgan ishlari bunga ziddir. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e`tibor berishga va bu borada ibratli an`analarni vujudga keltirishgan.

Oila davrasida farzandlarga: «Suvga tupurma! Uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichiqhadi,» «Gullab turgan meva shoxini sindirma, u meva beradi, uni O`zing iste`mol qilasan» deganlar.

O`lkamizning tabiiy O`simliklar dunyosi, ularning foydasi bu boyliklarni muhofaza qilishni yoshlarga uqtirish, ta`lim tizimining asosiy vazifasidir.

Ekologik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- Atrof-muhit va uning shaxs ma`naviy dunyosiga ta`siri;
- Tabiat va uning ahamiyatini aniklash;
- Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi;
- O`z shaxrini, kishlok va maktab xovlisini ko`kalamzorlashtirishda o`simliklarni parvarishlashga qizikishni oshirish;
- Atrof-muhit muhofazasida bolalar vazifalari;
- Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning namunali o`rni;
- Oiladagi, maktabdagi tabiatni, o`simlik va hayvonot dunyosini e`zozlashga o`rgatish;
- Tabiatni ongli munosabatda bo`lish;

-Yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash.

Ekologiyani o'zgartirish uning ifloslanishini miqdorini miqdoran son jihatdan ko'rsatkichlarini bildirish, matematika fanidan beriladigan ekologik tarbiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, respublikamizda 1200 ga yaqin sanoat korxona borligi ular havoga bir yarim ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni jasoratligi, bunday xolat 10-20 yildan keyin nimalarni olib kelishini misollar bilan tushuntirish lozim.

Ekologik yo'nalishdagi to'garaklardagi bolalar tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishtirishga o'rgata boradi. To'garak mashg'ulotlarida o'qiladigan «Tabiatni e'zozlaylik», «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», kabi mavzular o'quvchilarda tabiatga qiziqishi yanada oshiradi.

O'quvchilar ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarurdir.

- Tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ularning bog'likligi;
- Tabiat boyliklaridan tejab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- Atrof-muhit ifloslanishlardan saqlash;
- Tabiat kelajak avlodlar uchun tabiiy xolda qoldirishga intilish.

Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash o'quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg'otadi, tabiatni ximoya qilish uchun kurashishga, uning go'zalligini asrab-avaylashga olib keladi.

2.6. Iqtisodiy tarbiya

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirish. Iqtisodiy tarbiya mazmuni haqida sharq mutaffakiri Abu Nasr al-Farobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar keraqligini va bularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat etish zarurligini e'tirof etadi.

Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv yo'lida» asarida shunday yozadi: «Inson o'z mablag'ini

to`g`ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg`anchilik qilish hasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaqlaydi.»

Ko`rinib turibdiki, o`tmish mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o`rgatish, hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e`tibor berganlar.

Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Bola maktabga borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino o`z asarlarida shu xususda alohida to`xtaladi: «Oila a`zolari kunlik oziq-ovqatlar» uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug`doy, gurunch va mevalarni saqlash yo`llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo`lishi lozim. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasixat yo`li bilan o`rgatadi.»

Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o`rgatish kerak deb ko`rsatadi: «Inson hunarni puxta o`rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro`zg`or tebratish uchun asqotadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolada mexnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilish kerakki, bola o`z mexnatining natijalarini ko`ra bilsin. Shundagina bola o`z imkoniyatlaridan to`g`ri yoki noto`g`ri foydalanayotganini anglaydi. Hunar egallash yoshlarni mustaqilikka o`rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o`rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo`ladi.»

Ota-onalar xovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, Kir yuvish va kiyim kechakni yamash, ro`zg`or asboblari va uydagi jihozlarni ta`mirlash soxasida bolalar mexnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarini bolalarga ularning jismoniy, ruhiy, aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan xolda topshirishlari kerak. Ota-ona ishni topshirish bilan cheklanmay bola uni qanday bajarayotganligini tekshirishi, lozim bo`lsa maqlaxat berishi, ko`maklashishi bolaning ruxlanib turishi maqsadga muvofikdir. Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko`p jixatdan oila, maktab, jamoatchilik va mexnat jamoalarining

baxamjixat kuch-g'ayrat karflashlariga va o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablari bir xil bo'lishiga bog'lik.

Bugun maktab partalarida o'tirgan yoshlar ertaga shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, vatan mudofasi, Xalqaro munosabatlar va tabiat injiqliklari bilan bog'liq ravishda tug'iladigan muammolarni to'g'ri xal etishga yaroqli bo'lgan qobiliyatini, jumladan tejash va tejamli bo'lish qobiliyatini xozirda boshlab astoydil shakllantirish va o'qtirish g'oyat katta ahamiyat egadir.

O'zbekiston davlatining moddiy va ma'naviy o'qish borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o'quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar.

Jamiyatshunoslik darslarida bolalar Xalq farovonligi yuqori darajaga ko'tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozimligini o'rganadilar. Kimyo, biologiya darslarida o'qituvchilar yoshlarga mineral o'g'itning iqtisodiy ahamiyati yaqqol misollar bilan ko'rsatadilar. Fan kashfiyotlari qanday iqtisodiy foyda keltirish mumkinligi haqida baxslashadilar. Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mexnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oladilar.

O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida biz keng va to'g'ri yo'naltirilgan yo'lni o'z oldimizga ko'yishimiz kerak.

Iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodiy tarbiyaga oid mavzulani chuqurroq tushuntirish; xozirgi kunda o'quvchilar nutqidan o'rin olayotgan atamalarni kasblarga bog'lab o'rgatish lozim.

Iqtisodiy tarbiya borasida iqtisodiy geografiya darslarining ikkita yo'nalishi alohida kasb etadi.

Birinchi yo'nalish dars amalga oshiriladi. Masalan, 9-Sinf uchun «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kitobida iqtisodiy bilimlarga shunday yirik boblar va ularning kichik mavzulari belgilangan.

1. O'zbekiston geografik o'rni.
2. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
3. O'zbekistonning aholisi va uning ishchi kuchlari.

4. Xalq xo`jaligining umumiy ta'rifi.
5. Respublikaning tarmoqlararo kompleksi.
6. Transport va iqtisodiy aloqalar.
7. Teritorial ishlab chiqarish komplekslari va iqtisodiy rayon.

Yangi tushuncha va atamalarning izohini tahlil qilish 10 Sinf uchun «Chet el mamlakatlari iqtisodiy geografiyasi» kitobida ko`yidagi asosda ta'lim beriladi.

1. Jaxon qishloq xo`jaligi.
2. Jaxon qanoati.
3. Jaxon transporti.
4. Turli davlatlarga ta'rif.
5. Shu davlatlarning o`zbekiston bilan aloqasi.

Ikkinchi yo`nalish o`quvchilarning darslikdagi iqtisodiy tarbiya qaratilgan topshiriqlar va vazifalarni bajarishlaridir.

XULOSA

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach tarbiya masalasi yangi mazmun bilan boyitildi va o'z-o'zidan amalga oshiriladigan ish emas, balki u murakkab jarayon hisoblanadi. Uni tashkil qilish va olib borishda ma'lum andozalar va me'yorlarni absolyutlashtirish ham yaramaydi. Bunda bir qator omillarni hisobga olish zarur bo'ladi. Xususan yashayotgan davr xususiyatlari, tarixiy bosqichida mamlakat oldida turgan vazifalar, maqsadlar, mamlakatning ko'p millatligi, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy saviyasi qay darajada rivojlanganligi va boshqa bir qator olimlarni hisobga olish zarur bo'ladi. Mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, o'zgalarga hamdardlik, ilmi-hunar, ota-onaga hurmat, qarindosh-urug'chilik, insonparvarlik, kamtarlik, jamoatchilik fikrini hurmat qilish, ma'rifatga intilish, xalqparvarlik, mustahkam e'tiqodlilik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi fazilatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda halqimizga xos an'ana va urf-odatlardan keng foydalanish davr talabidir. Farzandga oilada berilgan tarbiyaning ildizlari, avvalo ota-ona kasbidagi mehr chashmasidan oroziq olsagina, qolaversa, uni qabuo qiluvchining yuragida ham shunga mos muhit bo'lgandagina o'z samarasini beradi. Ya'ni tarbiya beruvchi va tarbiya oluvchi o'rtasidagi uyg'unlik o'zaro hurmat vujudga kelsa, ko'zlangan maqsad ro'yobga chiqadi. Bu borada nafaqat ota-ona balki maktab jamoasi ham faol ishtirok etishi kerak. Ushbu tarbiya jarayoni milliylik sari yo'naltirilgan va mazmun sifatida milliy qadriyatlar, udumlar, halq bayramlari keng ishlatilishi lozim. Faqat ular tarbiya ishida ijodiy ishlatilgan holdagina biz o'zligini anglagan, axloqan milliylikni o'zida mujassallashtirgan shaxsni tarkib toptirish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Har qanday jarayon muayyan natijaga erishishga qaratilgan qonuniy va izchil xarakterli majmuasidan iborat bo'ladi. Tarbiya jarayoni natijasi har tomonlama va uyg'un kamol topgan, yangi mustaqil o'zbekiston ravnaqini ta'minlaydigan komil insonni shakllantirishdan iborat. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyushtirish, rahbarlik va tarbiyalanuvchining faolligini talab etadi.

Bu jarayonda o`qituvchi yetakchi-chunki u tarbiya maksadlarini amalga oshirish faqturini ishlab chiqadi, tarbiya shakllari, metod va usullarini asosli tarzda tanlab oladi va tadbik etadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya jarayoni mohiyati-muayyan voqea rivojlanishining asosiy belgilari va tendensiyalarini belgilovchi chuqur aloqalarni, ichki munosabatlarini aks ettiradi.

1. Shaxs tarbiyaning qonuniy natijasi sifatida yaxlit mavjudotdan iborat. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, yaxlit kompleks shaklida rivojlanadi. Bola o`qib rivojlanib borgan sari tarbiya fazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabakalashib boradi.

2. Tarbiya komponentlari o`zaro aloqada bo`lib, maksad, vazifa, tarbiya mazmuni, shakllari va metodlari mushtaraqligi bilan shakllantirilishi kerak.

3. Tarbiya jarayoni ob'yektiv ravishda aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiya birligini, o`quvchilarning ongi, xulq- atvori va faoliyati birligini, tarbiya jarayonini tashkil etishning individual, gruppali va ommaviy shakllari qo`shib olib borishini ta'minlaydigan pedagogik tizimni vujudga keltirishni va bu tizimning amal qilishini talab etadi.

4. Tarbiya jarayoni shaxsning sotsial qadrli vazifalarini shakllantirishga, uning dunyoga-jamiyat, odamlar va o`ziga nisbatan munosabati doirasini vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgandir.

5. Tarbiya ko`p faktorlik xarakter ega. Bola shaxsi qaror topishida maktab, oila, jamoatchilik, mahalla, sotsial muxit va turli vaziyatlar xilma-xil, bevosita va bilvosita ta`sir ko`rsatadi. /Bolani hamma narsa tarbiyalaydi/.

6. Tarbiya uzoq davom etadigan va uzluksiz jarayon bo`lib, kishining umri oxirigacha davom etadi.

7. Tarbiya jarayoni natijalari odatda bir xil bo`lmaydi. Bu narsa ko`pgina sabablarga, o`quvchilarning individual-tipalogik tafovutlariga, ularning ma'naviy tajribasiga, shaxsiy pozitsiyasiga bog`liq.

8. Tarbiya o`z-o`zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash bilan qo`shib olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Fidokor gazetasi muxbiri savollar javob – T.: O'zb 2000. – 40 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008. – 176 b.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Islom Karimovning Oliy Majlisining 1997 IX sessiyasida so'zlagan nutqi. – T.: Sharq, 1998. – 3 –19 b.
4. «Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni». – T., 1997 yil 29 avgust 20-29 b.
5. Asqarov M, Xaytboyev M, Nishonov M. Pedagogika. Darslik. T.:Talqin, 2008.-289 bet
6. Quronov M. «Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya».
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1996. – 192 b.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
9. Ochilov M. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 207 b.
10. Tulenov J. Ma'naviy yuksalish sari. – T.: Ma'naviyat, 1995. – 207 b.
11. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.– T.: O'zbekiston, 1999. – 29 b.
12. Mavlonova R. Pedagogika. -T.: 2002.- 80 str.
13. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>
14. <http://dl.nw.ru/theories/technologies>
15. **www. ziyonet . uz.**
16. **http . llel .tfi . uz.**
17. **www . avlony –library. connect uz.**